


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**A.Atajonova
M.Jumaniyozova**

**“ONA TILI” DAN
MUSTAQIL TA‘LIM ISHLARI**

(“Maktabgacha ta‘lim” ta‘lim yo‘nalishi uchun)



Toshkent- 2012

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma «Maktabgacha ta'lim» yo'nalishida bakalavrlar tayyorlash o'quv rejasiga va ona tili fani bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2011- yil 17- noyabrda № BD-5111700-3.03 bilan ro'yxatga olingan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Unda "Hozirgi o'zbek tili" (ona tili) dan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga tadbiq eta olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladigan mustaqil ta'lim ishlari, ularning topshiriqlari hamda bu topshiriqlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shuningdek, unda mustaqil ta'lim ishlarini baholash mezonlari va tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati ham o'z aksini topgan.

Tuzuvchilar: f.f.n., A.Atajonova
f.f.n. dots. M. Jumaniyozova

Taqrizchilar: f.f.n. dots.A.Primov
f.f.n.S.Ro'zimboyev

Oquv uslubiy qo'llanma UrDU ilmiy-metodik kengashining ____ ____ 2012-yil ____ -sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

SO‘Z BOSHI

Mustaqil ta'lim talabaniing umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga yo'naltirilgan bilim faoliyati turlaridan biridir. Vazirlikning 2005- yil 21-fevral 34-sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi Nizom" da talaba mustaqil ishi (TMI) o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari bilan ta'minlanishi hamda reyting tizimi asosida baholanishi ko'rsatilgan.

Ona tili (Hozirgi o'zbek tili) o'quv predmeti "Maktabgacha ta'lim" bakalavr ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fandan mustaqil ta'lim ishlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi mazmun-mohiyati asosida ishlab chiqildi.

Ona tilidan mustaqil ta'limning asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabaniing ona tilidan berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu topshiriqlar yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash, axborot manbalaridan samarali foydalanish, an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, berilgan topshiriqning yechimini topish va topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish kabi vazifalarni bajaradi.

MUSTAQIL TA'LIM ISH TURLARINI BAJARISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR

Talabanimng mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishga intilishi, maxsus adabiyotlar, ilmiy manbalar ustida ishlashi, egallagan bilimlarini amaliyotga tatbiq etishi, o'zining mutaxassisligi bo'yicha kengroq bilimni egallashga bo'lgan ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shularga asoslanib ona tilidan mustaqil ta'lim ishi to'rt xil shaklda belgilanadi va ularning har biri 100 ballik sistemada baholanadi.

Ona tilidan mustaqil ta'lim ish turlari quyidagi shakllarda tuzilgan:

1. Muayyan mavzu yuzasidan referat tayyorlash
2. Muayyan mavzu bo'yicha konspekt olish
3. Muayyan mavzu bo'yicha test savollari tuzish
4. Muayyan mavzu bo'yicha amaliy topshiriqni bajarish

Bu topshiriqlarning barchasi talabalarning ona tilidan olgan nazariy bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'quv adabiyotlari bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi, vazifani mustaqil bajarish, ijodkorlik hamda o'ziga ishonch ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Talaba mustaqil ta'lim ishlarini ularning xarakteriga qarab bajaradi. Bunda unga tubandagilar yordam beradi.

1. Referat tayyorlash.

Ma'lumki, referat vazmunida o'rganilayotgan biror mavzu mohiyati keng yoritiladi. Referatni birdaniga yozib bo'lmaydi. Matnni tayyorlash uchun avval adabiyotlarni ko'rib chiqib, reja tuzish va yoza boshlash kerak bo'ladi. Unda darslik doirasidagina emas, qo'shimcha adabiyotlardan foyadalanish alohida o'rin tutadi. Agar biror muallifning fikri mavzuni yoritish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lsa, shunday ko'chiriladi va qo'shtirnoq ichiga olinib, izoh beriladi, raqamlanadi va manba ko'rsatiladi. Unda havola qilingan muallifning ismi-sharifi, asar nomi, nashriyot, nashr qilingan yili hamda nechanchi sahifada ekanligi ko'rsatiladi.

Talaba referatni yozishda ilmiy adabiyotlarni chuqur o'rganishi, qiyoslashi, ilmiy xulosalar chiqara olishi muhimdir. Bunda mavzuning mohiyatini mantiqiy izchillikda tuzilgan reja asosida ochib berilishi maqsadga muvofiqdir. Talaba har bir reja ostida o'z fikrlarini aniq va lo'nda ifodalashi, unga ilmiylik nuqtaiy nazaridan yondashishi muhim hisoblanadi.

''A. Navoiyning o'zbek adabiy tili rivojlanishidagi o'rni'' mavzusidagi referatga quyidagicha reja tuziladi.

Mavzu: Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili rivojlanishidagi o'rni .

REJA:

1. A. Navoiy- buyuk mutafakkir alloma.
2. A.Navoiy o'zbek adabiy tili asoschisi sifatida.
3. A.Navoiyning ''Muhokamat ul-lug'atayin'' asari va uning o'zbek tilshunoslikdagi o'rni.
4. A.Navoiyning lingvistik qarashlari.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: ''O'qituvchi'', 1992.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: ''O'qituvchi'', 1996.
3. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: ''O'qituvchi'', 1995.
4. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: ''O'qituvchi'', 1996.
5. Alisher Navoiy. Asarlar. . Mukammal asarlar to'plami 13-tom. Toshkent:. «Fan»-1997-2000.
6. Alisher Navoiy. Asarlar. . Mukammal asarlar to'plami 14 tom. Toshkent:. «Fan»-1997-2000.
7. Alisher Navoiy. Asarlar. . Mukammal asarlar to'plami 15-tom. Toshkent:. «Fan»-1997-2000.
8. Alisher Navoiy. Asarlar. . Mukammal asarlar to'plami 16-tom. Toshkent:. «Fan»-1997-2000.
5. lisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom, Toshkent: "Fan", 2001.
6. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent, 2002.
7. Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi. – Toshkent: "Fan", 1992.
8. . Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik:
9. . Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik:
10. . Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik:
9. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik: 1-t., ''Fan'', 1983
- 10.; 2-t., ''Fan'', 1983; ''3-t., ''Fan'', 1984; 4-t., ''Fan'', 1985.

Internet saytlari: www.pedagog.uz

www.ziynet.uz

Referatda yoritilishi lozim bo'lgan masalalar:

A.Navoiyning o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tili rivojlanishidagi o'rnini, uning ilmiy va ijodiy merosining ahamiyati, Alisher Navoiy o'zining ulkan dengizga qiyos etishga arzigulik badiiy ijodi bilan turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko'tirishi, ayni choqda, bu til imkoniyatlarini o'sha davrda mashhur bo'lgan arab, fors-tojik, hind tillaridan qolishmasligini amalda isbotlashi. Ulug' shoir turkiy til yetukligini nazariy jihatdan ham asoslash niyatida 1499-yilning dekabrda "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasini yozishi.

"Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asari haqida quyidagicha fikr yuritish mumkin:

"Muhokamat ul-lug'atayn"da so'z durga qiyoslanadi, uning daryosi ko'ngil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, so'zning durdan tafovut etiladigan jihatlarining benihoya ko'pligi, uning "sharafidin o'lgan badang'a ruhi pok efishi, "kasifidin (qo'polligi, nojo'ya aytilishidan) hayotlig' tang'a zahri halok xosiyati zuhur efishi bayon qilinadi. Shu tariqa insonga in'om etilgan ilohiy ne'mat so'z so'zlashdan muddao ma'no ekanligi asarda o'z ifodasini topadi: «Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma'nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so'z aning so'zindadur va takallum aning kalomida borur" (16.9).

Alisher Navoiy turkiy tilning "fasohat-u diqqati" (ravon, yoqimli, qoidaga muvofiq-u nozikligi) va "balog'at-u vus'ati"(badiiy ifoda-yu keng imkoniyatlari) haqidagi rad etib bo'lmas fikrlarini risolada bayon qilish uchun uni o'zi mukammal bilgan fors-tojik tili bilan chog'ishtirishni ma'qul topadi. Bu uslub muallifning risola yozishdan ko'zlangan maqsad-muddaosini amalga oshirish uchun eng to'g'ri imkoniyat edi. Alisher Navoiy turkiy til haqidagi umumlashma-xulosalarini boshqa bir til imkoniyatlari bilan qiyoslamay bayon qilsa, uning nazariy mulohazalari shunchaki o'z ona tilini madhidangina iborat bo'lib qolishi mumkin edi. Shu bois risola muallifi har ikkala tilning zukko bilimdoni, bu tillarda o'lmas badiiy asarlar

ijod etgan taniqli shoir sifatida asardagi turkiy tilning fazilatlariga oid mulohazalarini juda asosli dalillar bilan quvvatlantiradi. "Muhokamat ul-lugʻatayn"da turkiy-oʻzbek va fors-tojik tillari imkoniyatlarini taqqoslashdan yana bir muddao: oʻsha davrda fors-tojik tilida ijod qilishga mayli koʻproq boʻlgan oʻzbek shoirlarini turkiy tilning "fasohat-u diqqati, balogʻat-u vus'ati"dan xabardor qilish edi. Alisher Navoiy risolada fors-tojik tilida jahoniy mavqega ega boʻlgan badiiy asarlar ijod etilgan boʻlib, turkiy tilda bu jarayonning rivoji ancha sust borayotganligiga eʼtiborni qaratadi. Shuningdek, buning sabablarini izohlashga harakat qiladi. Muallifning fikricha, shoirlar turkiy tildagi koʻp maʼnoli soʻz va ifodalarni yetarlicha anglab, ularni sheʼriyatda mahorat bilan qoʻllash mehnatidan qoʻrqadilar, mushkullardan zadalanib, osonlikka mayl qiladilar. Ikkinchi sabab: baʼzi idrokli soʻz sanʼatkorlari oʻz zamonasidagi hukmron anʼana doirasida qolishni maʼqul koʻradilar. Uchinchi sabab: yosh ijodkorlar oʻzlariga maʼqul boʻlgan asarlarini tajribali shoirlarga koʻrsatib eʼtirofga sazovor boʻlishni istaydilar. Biroq oʻsha taniqli soʻz sanʼatkorlari forsiygoʻylardir. Ular turkiy tildan bahramand emaslar. Shu bois endi ijod yoʻliga kirib kelayotgan shoirlar turkiyga emas, forsiyga mayl koʻrsatadilar. Alisher Navoiy turk shoirlarini nihoyatda latofatli boʻlgan oʻz ona tillarida ijod qilishga daʼvat etadi va zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro tomonidan bu haqda maxsus farmonlar qabul qilinganligini eslatadi: "...Va iltifot va ehtimom yuzidin baʼzi maʼnilar topib, nazm qilurgʻa hukmlar ham joriy boʻldi va soʻz uslubigʻa taʼyinlar va adosigʻa taʼlimlar ham izhori boʻldi"(16. 38). Turkiy til va adabiyot ravnaqini niyat qilib risola yozishga kirishgan muallif oʻz ona tilining fors tiliga xos boʻlmagan, muhimi, badiiy ijod uchun juda qoʻl keladigan baʼzi xususiyatlarini "Muhokamat ul-lugʻatayn"da bayon qiladi.

Maʼnodoshlik—badiiy uslub ziynatidir. Alisher Navoiy masalaga mana shu nuqtai nazardan yondashib, turkiy tildagi bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi soʻzlarning barchasini fors-tojik tilida uchratib boʻlmasligiga diqqatni jalb etadi. Buning isboti sifatida "Muhokamat ul-lugʻatayn"da fors tilida «muodidi boʻlmagan» yuzta feʼlning roʻyxati keltiriladi. Jumladan, "sipqarmoq" va

"tomshimoq" soʻzlari haqida bildirilgan mulohazalar turkiy til nafosatini yaqqol namoyon etishi bilan ahamiyatlidir:

"Shuaro akobiridinki, ba'zi "may" ta'rifida mubolagʻa qilibdurlar va bu moʻtaddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida soʻz koʻp surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolagʻa mundin oʻtmas. Turkcha nazmda bu matla' bordurkim. Bayt: Soqiyo, tut bodakim, bir lahza oʻzumdin boray, Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Oyo! Bu sipqaray lafzi mazmunigʻayetganda, forsiy sheʼrdane iloj qilgʻaylar? Va tomshimoqki, gʻoyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu gʻarib ma'ni adosida turkchada bu matla' bondiirki. Bayt:

Soqiy chu ichib, menga tutar qoʻsh: Tomshiy-tomshiy ani qilay noʻsh" (16. 13-14). "Muhokamat ul-lugʻatayn"ning muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, unda turkiy tilda shakldosh soʻzlarning juda koʻplab uchrashiga alohida eʼtibor qaratiladi. Bu tajnis va iyhom badiiy san'atlari bilan ziynatlangan baytlar, she'rxon tuygʻularini junbushga keltiruvchi tuyuqlar ijod etish uchun qoʻl keluvchi til imkoniyatidir. Alisher Navoiy risolada ot (ism), ot (hayvon), ot (otmoq) va it (koʻpak), it (yoʻqol), it (itar) shakldosh soʻzlarining she'riyatda qoʻllanishiga misol tariqasida ikki tuyuq keltiriladi va bir necha jinsdosh soʻzlarning ma'nosini izohlaydi (16.18-19).

"Muhokamat ul-lugʻatayn" adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham oʻziga xos mavqega ega boʻlgan moʻtabar manba sanaladi. Unda muallif oʻzining devonlari, "Xamsa" tarkibidagi dostonlari, "haqiqat asrorin majoz suratida ko'rguz"gan "Lison ut-tayr" va boshqa asarlari roʻyxati-yu ularing nihoyatda ixcham tavsifini keltiradi. Shuningdek, risolada fois-tojik adabiyotining yirik dargʻalari Xoqoniy, Anvari, Nizomiy, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Hojui Kirmoniy, Ashraf, Abdurahmon Jomiy kabilarning turli janr taraqqiyotida qoʻshgan hissalarini, adabiy ta'sir masalalari muxtasar tarzda bayon etiladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lugʻatayn" asarida turkiy tilning badiiy ijod uchun muhim boʻlgan fazilatlarini forsiy tilni kamsitmagan holda qiyoslash usuli bilan nazariy va amaliy jihatdan

asoslanadi. Muallif til va adabiyot masalalarini bir-biriga bog‘liq holda tahlil qilib, turkiy til va badiiy ijod ravnaqi uchun muhim umumlashma-xulosalarini bayon etadi. Risolada Sulton Husayn Boyqaroning o‘zbek tili va adabiyotiga munosabatini yorituvchi, shuningdek, ulug‘ shoirning o‘z hayoti, ilmiy-badiiy ijodi, adabiy ta'sir masalalari bilan aloqador ma'lumotlarning keltirilishi mumtoz adabiyotimiz tarixini o‘rganish uchun nihoyatda muhimdir.

2. Muayyan mavzular yuzasidan konspekt olish

Bu ish turini bajarishda ham talaba mavzuga oid reja tuzib, shu asosda mavzu haqidagi o‘zlashtirgan fikrlarini bayon etadi. Bunda har bir rejani yoritishda uning mohiyati bilan bog‘liq holdagi tayanch tushunchalarga ham izoh berib o‘tadi. Berilgan konspektlashtirish topshirig‘i talabadan mustaqil ravishda o‘qib – izlanishini, ijodiy holda fikrlashni talab qiladi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar keltirilishi va tanqid qilinishi ham mumkin. Konspektlashtirish muayyan mavzular yuzasidan chuqur mushohada yuritishga, bilimni yanada oshirishga turtki bo‘ladi. Bu tarzdagi topshiriq yana talabada ilmiy manbalar va adabiyotlar bilan ishlay olish malakasini ham shakllantiradi.

Mavzu: O‘zbek lotin yozuvi va kirill yozuvlarining qiyosi.

Reja:

1. Yangi o‘zbek lotin yozuvining qabul qilinishi.
2. Yangi lotin yozuvi tavsifi.
3. O‘zbek lotin yozuvining kirill yozuviga o‘xshash jihatlari.
4. O‘zbek lotin yozuvining kirill yozuvidan farqli jihatlari.

Yoritilishi zarur tayanch tushuncha va iboralar: yozuv, lotin yozuvi, yangi lotin yozuvi, kirill yozuvi, ko‘chish belgisi, tutuq belgisi, yumshatish belgisi, ayirish belgisi, yolarshgan grafemalar.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Abdullayev Y. Hamrohim. – Toshkent: ”O‘qituvchi”, 1996.
2. Jamolxonov H. Rus va lotin grafiklari asosidagi o‘zbek yozuvlarining imlo qoidalaridagi tafovutlar// ”Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1997, 4-son.
3. Jamolxonov H. Rus va lotin grafikalariga asosidagi o‘zbek yozuvlarining qiyosiy xarakteristikasi // ”Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1998, 4-son, 78-82- betlar..

4. Jamolxonov H. O‘zbek alfavitidagi harflarning nomlanishi // ”o‘zbek tili va adabiyot” jurnali, 1991, 3-son, 29-31-betlar.
5. Abdullaev Y. Moziy va yangi alifbo// ”O‘zbekiston ovozi”, 1995, 24 yanvar soni.
6. Jamolhonov H. O‘zbek yozuvi grafemalarining grafik tafsiloti // ”O‘zbek tili va adabiyot” jurnali, 1994, 4-5-6 (qo‘shma) son, 72-75-betlar.

Internet saytlari: www.pedagog.uz
www.ziynet.uz
www.edu.uz

3. Amaliy topshiriqlar

Amaliy topshiriqlar ta’lim jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun ham bu topshiriq turi katta ahamiyat kasb etadi. Bu topshiriqni bajarish talabadan ijodiy mushohadani, nutqining boy va obrazli bo‘lishini ham talab etadi. Ayniqsa, bu gap tuzish topshiriqlari bilan bog‘liq bo‘lib, bunda talabaning to‘g‘ri fikrlay olish va uni aks ettira olish qobiliyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Amaliy topshiriqlar ishning mohiyatidan kelib chiqqan holda aniq va lo‘nda bajarilishi lozim. Ayrim amaliy topshiriqlar uchun variantlar berilgan bo‘lib, ularning soni 10 tani tashkil etadi. Bunda har bir talaba guruh jurnalidagi tartib raqamiga mos ravishda variantlarni tanlab oladi. Ya’ni guruh jurnalida 1, 11, 21, ... tartib raqamida bo‘lgan talabalar 1-variantni, guruh jurnalida 2, 12, 22, ... tartib raqamida bo‘lgan talabalar esa 2-variantni topshiriqlarini bajaradilar va h.k.

Amaliy topshiriqlarni har bir talaba individual bajaradi va unga ijodiy yondashadi.

Amaliy topshiriq

Fonetik va morfologik tamoyilga ko‘ra yozilgan 10 ta so‘z yozish va ularni qatnashtirib gaplar tuzish.

Sanoq, yasha, shahri.... kitob, ketdi, yigitcha...

1. Tursun aka qurgan uylarining **sanog‘idan** ham adashib ketdi.
2. Xalqimiz ozod va obod yurtida tich va farovon **yashamoqda**.
3. Bizning **shahrimizda** juda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda...
4. **Kitob**-bilim bulog‘i.
5. Feruza indamasdan o‘z yo‘liga **ketdi**.
6. Hali o‘zi yosh **yigitcha** ekan-ku, nimasiga gerdayadi...

4. Muayyan mavzu bo‘yicha test savollari tuzish

Bu topshiriq ham talabadan shu mavzuning mazmunini o‘zida aks ettiruvchi ma’lumotlarni jamlashtirishni hamda murakkablik darajasini e’tiborga olgan holda savollar tuzishni maqsad qiladi. Har bir mavzu bo‘yicha 20 ta test savoli tuzish belgilab qo‘yilgan. Test savollriga to‘rt xil javob varianti keltiriladi. Test savollari

aniq va to'g'ri tuzilishi, uning javoblaridagi fikrlar takrorlanmasligi zarur hisoblanadi.

Masalan, "Tilshunoslikning fonetika bo'limiga doir 20 ta test tuzish" topshirig'iga quyidagicha test savollari tuziladi.

1. So'zlar tarkibida q tovushi x tarzida talaffuz etiladigan qatorni toping.

- a) yiituq, chiziq, qoziq
- b) chumchuq, qisqa, to'qmoq
- c) maqbara, to'liq, tutqun
- d) maqtanmoq, taqsimot, taqsir *

2. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra b hamda p undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

- a) b - lab undoshi, lab-lab; p - lab undoshi, lab-lab *
- b) b - jarangli undosh, p - jarangsiz undosh
- c) b - jarangli undoshining jarangsiz jufti p undoshidir
- d) a va b javoblar

3. Javoblarning qaysi birida unli tovushlar ko'rsatilgan?

- a) b, f, k, s, t
- b) a, u, o', i, o, e *
- c) i, e, a, o, o', u, r, l, v
- d) m, n, ng, r, l

4. Qaysi qatordagi so'zlarda "ng" bir tovushni ifodalamoqda?

- a) tanga, jang, menga
- b) zang, ko'ndalang, ingramoq *
- c) durang, onangiz, nonga
- d) kongress, menga, singil

5. Qaysi qatorda jarangsiz jufti bor jarangli undoshlardan iborat so'z berilgan?

- a) paxta
- b) zavod *
- c) bog'bon
- d) sassiz

6. Bo'g'inga ajralmaydigan so'zlar qatorini belgilang.

- a) qit'a, qal'a, yechim
- b) hukm, gramm, ong *
- c) ongi, yengil, yangi
- d) a, b va c

7. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda "jurnal" so'zidagi j jaranglisining jarangsiz jufti qo'llangan?

- a) chalg'i, kuch, shosh
- b) tosh, bosh, kuch
- c) archa, ko'cha, xipcha
- d) osha, qo'sha, shish *

8. Qaysi qatordagi so'zlar urg'usi aksar hollarda birinchi bo'g'inda bo'ladi?

- a) zo'rg'a, issiq, proza *
- b) ilgich, duqma, ildiz
- c) madad, maket, malax
- d) navbat, mo'g'ul, nasha

9. Qaysi qatordagi so'zda ochiq bo'g'in qo'llangan?

- a) bellashmoq
- b) vaz minlik
- c) barzangi *
- d) kamqatnov

10. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni belgilang.

- 1) tortma; 2) akademik; 3) o'quvchimiz; 4) tok; 5) etik; 6) ko'zlar; 7) changi; 8) tort
- a) Barcha so'zlarda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajaradi.
- b) 1, 2, 3, 6, 7
- c) 1, 2, 3, 5, 6, 7 *
- d) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8

11. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

- a) polvon, mehnat, najot
- b) mukofot, zimiston, vatandosh
- c) radio, kofe, traktor *
- d) albatta, afsuski, fonetika

12. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmui nima deb ataladi?

- a) orfografiya qoidalari deyiladi
- b) orfoepiya qoidalari deyiladi *
- c) fonetik qoidalar deyiladi
- d) grammatik qoidalar deyiladi

13. Quyidagi hodisalarning qaysi biri beyosita orfografiya va orfoepiya bilan bog'liq emas?

- a) ko'p ma'nolilik *
- b) omonimlik
- c) paronimlik
- d) a, b

14. Qaysi so'zlarda (') belgisi unlining undoshdan ajratib aytilishini bildiradi?

- a) Ra 'no, sa'va
- b) she 'r, ma 'no
- c) mas 'ul, fe'l
- d) sur 'at, jur'at *

15. Qaysi qatordagi so'zlarda (') belgisi unli tovushning cho'ziqroq aytilishini bildiradi?

- a) sur'at, jur'at
- b) mas'ul, ma'qul

- c) ma'no, da'vo *
- d) qat'iy, e'lon

Talabaning mustaqil ishini baholash mezoni

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 27-avgustdagi 276-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va Al-Xorazmiy nomli UrDU "Talabalarning bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomiga asosan "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasida o'qitilayotgan "Ona tili" fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarini baholash mezoni quyidagichadir:

1. Referatni baholash mezoni

- Referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa - 86ball-100ball
- Mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor-71-85ball
- Mavzu mohiyati yoritilgan, ammo juz'iy kamchiligi bo'lsa-55-70 ball
- Mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bor bo'lsa-0-54 ball

2. Berilgan mavzu bo'yicha konspekt yozishni baholash mezoni

- Agar mavzuning mohiyati to'la ochilgan bo'lib, mavzu bo'yicha talabaning ijodiy fikrlari va tanqidiy nuqtaiy nazari bayon qilingan bo'lsa-86-100 ball
- Mavzuning mohiyati to'la ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa-71-85 ball
- Mavzu to'g'ri yoritilgan bo'lsa, lekin ayrim kamchiliklari bo'lsa-55-70 ball
- Mavzu umumiy tarzda yoritilgan bo'lsa va kamchiliklar ko'proq bo'lsa-0-54 ball

3. Amaliy topshiriqni baholash mezoni

- Agar berilgan topshiriq to'la, aniq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa-86-100 ball
- Agar berilgan topshiriq to'la bajarilgan, ammo ba'zi xatolari bo'lsa-71-85 ball
- Agar berilgan topshiriq bajarilgan, ammo xatolari bo'lsa-55-70 ball
- Agar berilgan topshiriq to'liq bajarilmagan va ko'plab xatolari bo'lsa-0-54 ball

4. Test tuzishni baholash mezoni

- Test mavzuni to'liq qamrab olgan bo'lsa, soddadan murakkabga tomon tuzilgan bo'lsa-86-100 ball
- Test mavzuni qamrab olgan bo'lsa, ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-71-85 ball
- Test mavzuni to'liq qamrab olmagan bo'lsa, ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-55-70ball
- Test mavzuni to'liq qamrab olmagan bo'lsa, ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-0-54 ball

“Ona tili” fanining semestrlar bo‘yicha soatlar taqsimoti

Kurs	Semestr	Ma’ruza	Amaliy	Mustaqil ta’lim	Jami
1	I	57	57	94	208
	II	38	76	94	208
Jami		95	133	188	416

MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.

1-semestr

№	Mustaqil ta’lim shakli	Mavzular nomi	Ajr .soat
1	Konspekt olish	Tilning paydo bo‘lishi haqidagi olimlarning qarashlari	2
2	Referat	Tillarning genetik va morfologik tasnifi	2
3	Konspekt olish	Eski o‘zbek adabiy tili va uning o‘ziga xos xususiyatlari	2
4	Referat	A.Navoiyning o‘zbek adabiy tili rivojlanishidagi o‘rni	2
5	Konspekt olish	O‘zbek adabiy tili fonetik sistemasi haqida ma’lumot	2
6	Konspekt olish	Fonetik tahlil tartibi	2
7	Amaliy topshiriq	Berilgan gaplardagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish va urg‘usini qo‘yish	2
8	Test tuzish	Tilshunoslikning fonetika bo‘limiga doir 20 ta test tuzish	2
9	Konspekt olish	Yozuvning jamiyat rivojidagi o‘rni.	2
10	Konspekt olish	O‘zbek lotin yozuvi va kirill yozuvlarining qiyosi	2
11	Amaliy topshiriq	Fonetik va morfologik tamoyilga ko‘ra yozilgan 10 ta so‘z yozish va ularni qatnashtirib gap tuzish	2
12	Konspekt olish	Transkripsiya	2
13	Amaliy topshiriq	Berilgan so‘zlarni o‘z va kochma ma`nolarini izohlang va ularni qatnashtirib gaplar tuzing	2

14	Konspekt olish	Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” kitobining qisqacha izohi (– T., O‘qituvchi, 1974)	2
15	Test tuzish	Sozlarning shakl va ma’nosiga ko‘ra turlari bo‘yicha 20 ta test tuzish	2
16	Test tuzish	Nofaol so‘zlarga oid 20 ta test tuzish	2
17	Amaliy topshiriq	Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklaridagi matnlardan o‘z qatlam so‘zlarini topish	2
18	Amaliy topshiriq	Badiiy asar matnidan o‘zlashma qatlam so‘zlarini topish va guruhlash	2
19	Amaliy topshiriq	O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanidan eskirgan so‘zlarni topish va ularni guruhlarga ajratish	2
20	Amaliy topshiriq	10 ta neologizm topib, ular ishtirokida gap tuzish	2
21	Amaliy topshiriq	Badiiy matndan uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni topish va izohlash	2
22	Konspekt olish	Sh.Raxmatullayevning “O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati” kitobining izohi	2
23	Referat	O‘zbek lug‘atshunosligi tarixi	2
24	Konspekt olish	“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (T.1980.) dagi maqolalarning berilish tartibi	2
25	Konspekt olish	G‘ulomov A., Tixonov A.N. Qo‘ng‘urov R. "O‘zbek tilining morfemik lug‘ati" kitobi sharhi	2
26	Amaliy topshiriq	Muayyan matnni morfemalarga ajratish	2
27	Konspekt olish	Sinxron va diaxron so‘z yasalishi haqida ma'lumot	2
28	Amaliy topshiriq	Muayyan matndagi yasama so‘zlarni topish va so‘zlarning yasalish usullarini ko‘rsatish	2
29	Test tuzish	Grammatik ma’no va grammatik kategoriyalarga oid 20 ta test tuzish	2
30	Amaliy topshiriq	Muayyan matndagi so‘zlarni turkumlarga ajratish	2
31	Amaliy topshiriq	A. Qahhor hikoyalarida qo‘llangan ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni topish va ularni izohlash	2
32	Amaliy topshiriq	A. Qodiriyning "O‘tgan kunlar" romanidan olingan parchadagi sifatlarni topish va ularni izohlash	2
33	Amaliy topshiriq	O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi sonlarni topish va izohlash	2
34	Amaliy topshiriq	Muayyan badiiy asar matnidagi olmoshlarni topish va izohlash	2

35	Test tuzish	Ot, sifat, son va olmoshlarga doir 20 ta test tuzish	2
36	Amaliy topshiriq	Badiiy asar matnidan bo'lishli va bo'lishsiz hamda o'timli va o'timsiz fe'llarni topib, izohlash	2
37	Amaliy topshiriq	Berilgan fe'llardan uning nisbatlarini hosil qiling va ularni qatnashtirib gap tuzing	2
38	Test tuzish	Fe'l so'z turkumi yuzasidan 20 ta test tuzish	2
39	Amaliy topshiriq	Badiiy matndagi ravishlarni topish va ularni ma'nosiga ko'ra guruhlash	2
40	Amaliy topshiriq	Badiiy matndan olingan parchadagi ko'makchilarni topish va ularni vazifasiga ko'ra turlarga ajratish	2
41	Test tuzish	Bog'lovchiga doir 20 ta test tuzish	2
42	Amaliy topshiriq	She'riy matndan yuklamalarni topish va ularni izohlash	2
43	Amaliy topshiriq	Modal so'zlarni qatnashtirib matn tuzing	2
44	Amaliy topshiriq	Taqlidiy so'zlarni qatnashtirib, badiiy matn tuzish	2
45	Test tuzish	Undov so'zlar yuzasidan 20 ta test tuzish	2
46	Amaliy topshiriq	Badiiy matndan undov so'zlarni topish va ularni turlarga ajratish	2
47	Amaliy topshiriq	Morfologik tahlil tartibi	2
	Jami:		94

2–semestr

№	Mustaqil ta'lim shakli	Mavzular nomi	Ajr.so at
1	Referat	“O'zbek tilining nazariy grammatikasi” risolasini o'qib tahlil qilish	2
2	Konspekt olish	So'zlarning teng va tobe bog'lanishi	2
3	Konspekt olish	So'z birikmasining o'ziga xos xususiyatlari	2
4	Amaliy topshiriq	Berilgan gaplarni so'z birikmalariga ajratish va tahlil qilish	2
5	Test tuzish	Gap va uning turlari yuzasidan 20 ta test tuzish	2
6	Amaliy topshiriq	3-sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan bironta hikoyadagi gaplarni ifoda-maqсадiga ko'ra turlarga ajratish	2
7	Amaliy topshiriq	10 ta gap tuzish va uni tasnif qilish	2

8	Konspekt olish	Gap bo‘laklarini ajratish tamoyillari	2
9	Amaliy topshiriq	Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi egalarni aniqlash, uni qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishini izohlash	2
10	Amaliy topshiriq	Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasidagi kesimlarni topish va uni qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini, tuzilishiga ko‘ra turini aniqlash	2
11	Amaliy topshiriq	Matndan shaxs va sonda moslashmagan ega kesimli gaplarni aniqlash	2
12	Test tuzish	Aniqlovchi va izohlovchiga doir 20 ta test tuzish	2
13	Amaliy topshiriq	Badiiy asar matnidani to‘ldiruvchilarni topish va ularning qanday ifodalanishini izohlash	2
14	Amaliy topshiriq	Badiiy asar matnidani hollarni topish va ularning qanday ifodalanganligini izohlash	2
15	Amaliy topshiriq	“Diyonat” romanidagi gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini topib izohlash	2
16	Amaliy topshiriq	Berilgan gaplarni tasnif qilish va sintaktik tahlil etish	
17	Amaliy topshiriq	Sintaktik tahlil va uni o‘tkazish tartibi	2
18	Amaliy topshiriq	She‘riy asar matnidagi inversiya va uning ko‘rinishlarini izohlash	2
19	Konspekt olish	Gap bo‘laklari tartibi (Matbuotda chop qilingan maqolalar misolida)	2
20	Amaliy topshiriq	Badiiy asar matnidani to‘liqsiz gaplarni topish va turlarga ajratish	2
21	Amaliy topshiriq	Bir bosh bo‘lakli gaplarni qatnashtirib matn tuzish	2
22	Test tuzish	Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar yuzasidan 20 ta test tuzish	2
23	Test tuzish	Badiiy asar matnidagi bo‘laklarga ajralmaydigan gaplarni izohlash	2
24	Test tuzish	Uyushiq bo‘lakli gaplar yuzasidan 20 ta test tuzish	2
25	Konspekt olish	Uyushiq bo‘laklarda bog‘lovchining qo‘llanishini izohlash (gazeta, jurnallar materiallari asosida)	2

26	Referat	Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A, Xaliyorov X, Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis.-(Toshkent , 1979) kitobi sharhi	2
27	Amaliy topshiriq	Badiiy asar matnidan gapning ajratilgan bo‘laklarini aniqlash	2
28	Amaliy topshiriq	Ajratilgan bo‘laklarni qatnashtirib matn tuzish	2
29	Amaliy topshiriq	She‘riy asarlardagi undalmalarni topish va izohlash	2
30	Amaliy topshiriq	Kirish so‘z va kirish birikmalarini qatnashtirib badiiy matn tuzish	2
31	Amaliy topshiriq	Ilmiy matndan kirish qurilmali gaplarni topish va ularni ma‘nosiga ko‘ra izohlash	2
32	Test tuzish	Kiritma qurilmali gaplarga doir 20 ta test tuzish	2
33	Test tuzish	Bog‘langan qo‘shma gaplarga oid 20 test tuzish	2
34	Konspekt olish	Bog‘lovchisiz tuzilgan qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishiga doir badiiy asar matnidan misollar keltirish	2
35	Referat	Ergashgan (tobe aloqali) qo‘shma gap turlarini tasnif qilish va misollar orqali izohlash	2
36	Test tuzish	Bir necha bosh gapli va bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplarga oid 20 ta test tuzish	2
37	Amaliy topshiriq	Murakkab sintaktik butunliklar tuzish	2
38	Konspekt olish	Ko‘chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi	2
39	Test tuzish	Ko‘chirma gaplarga oid 20 ta test tuzish	2
40	Test tuzish	O‘zlashtirma gaplarga oid 20 ta test tuzish	2
41	Amaliy topshiriq	Tinish belgilarining qo‘llanishini misollar orqali izohlash	2
42	Amaliy Topshiriq	Badiiy uslub asosida matn tuzish	2
43	Amaliy Topshiriq	Rasmiy – idoraviy uslub asosida ariza, tilxat, tushuntirish xati, dalolatnoma yozish	2
44	Amaliy Topshiriq	Ommabop (publisistik) uslubning til xususiyatlarini (gazeta, juranallar matni asosida) izohlash	2
45	Amaliy Topshiriq	Badiiy asar matnidan omonim va sinonimlarning uslubiy xususiyatlarini izohlash	2
46	Amaliy Topshiriq	Paronim so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini badiiy matn orqali izohlash	2
47	Amaliy topshiriq	Badiiy matndan badiiy uslubga xos so‘zlarni topib, ularni izjhlash	2
	Jami:		94

MUSTAQIL TA'LIMNING AMALIY TOPSHIQLARI VARIANTLARI

1-semestr

Mavzu va topshiriqlar	Variant nomeri	Mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlar
7. Berilgan gaplardagi soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratish va urgʻusini qoʻyish	1	1. Sinovlarda men chiniqdim, qasamimga sodiqman. (Sh.Rustaveli) 2. Ikkovi valsga raqs tushib, shamolday gʻir aylanib turganlarida oyogʻi kimgadir tegib ketdi. (S.Nazar) 3. Sening shunchalik olihimmat bola ekanligingni bilmagan ekanman. (O.Joʻrayev) 4. Endi siz er- xotin emas, ona – bola boʻlibsiz. (Gʻ.Gʻ) 5. Uzoq –yaqinda qargʻalar qagʻillaydi. (A.Q)
	2	1. U doim piyoda, yurar edi sahroda. 2.Ona oʻz yurtini jonday sevadi, Vatan ham onani sevar., ardoqlar (Z.) 3.U ishkorning ogʻzida koʻringan yorugʻlikka intildi (S.An.) 4.Ajoyib sovut va dubulgʻa kiygan bir otliq arab tulporida qoʻshin oldidan chopib oʻtdi. (L.Bot) 5. Gullarda uchratdim sening koʻzingni.(Z)
	3	1. Bu hol Davronda bir zungina davom etdi (T.Rustamov) 2. Ularni eshikdan kutib olgan tund yuzli tanish saroybon Ali Qushchini yuqoriga boshladi. (O.Yo) 3.Dilbar qoshlarini chimirib shiyponga chiqar ekan, Asroraga qarab oldi. (S.Ahm) 4.Dimoqqa xush hid ufuradi, Bogʻlar oshib kelgan shabada. (H.S) 5.Bu oʻt oddiy chaqmoq toshdan chiqqan olov emasdir.

		(Sh.Rustaveli)
	4	1.Bo‘shashish xotirjamlikka o‘rin yo‘q. (A.Muhiddin) 2.Keyin keksalikning ko‘z oynagini taqib, igna bilan chuqur qazishdan ish chiqmaydi. (A.Q) 3.Oqil va fozillar mol – dunyoni emas, ilm –hunarni o‘z boyliklari deb hisoblaydilar.(K.Hamro) 4.Bu xatlarga samimiy, insoniy tuyg‘ular bitilgan.(S.Ahm) 5.Fanda oson yo‘l bo‘lmaydi, oson yo‘l tanlagan uzoqqa bormaydi. (I.S.Abd)
	5	1.Ehson ustki labini tishlab, ko‘zini yuqoriga ko‘tardi. (A.Q) 2.Endi qizning tasallibaxsh so‘zlarini tingladi u.(Sh.Rutaveli) 3.Rais uning ko‘ziga ilgarigidan kamsavlatroq ko‘rindi. (A.Q) 4..... Lekin undan kichikroq xarita ustiga egilishdi (H.G‘) 5.Ehtimol, eng so‘ngi misralarni u Qog‘ozni bo‘yagan qon-la bitgandir. (O.xoldor)
	6	1.Ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o‘tiribdi.(S.Ahm) 2.O‘giljonning yuzi tandirdek qizarib ketdi. (M.Birmatov) 3.Chog‘roqqina yo‘lakdan o‘tgandan keyin allaqanday..... uyning ostonasiga kelib qoldi.(N. Biryukov) 4.Malol kemas birrov borib qog‘ozini sero‘tlov joyga qo‘yib kelgin. (S.Ahm) 5.Uzun tarnovidan ko‘cha o‘rtasiga bo‘tanaroq suv oqib yotardi.(S.B)
	7	1. Qishloqdagi sayil bu yerdagidan ko‘ngilliroq o‘tdi. 2.Lekin bu ish avvalgi ishlaridan har jihatdan mushkulroq edi

		(H.G‘) 3.Sersoqol,baroq qoshli choliqushlar tiliga tushunardi. (Yu.S) 4.Otalar o‘z bolalarini dunyodagi bolalarning eng zo‘ri deb bilishadi. (S.Ahm) 5.Darhaqiqat, Tursunboy nihoyatda ko‘rkam yigit bo‘lgan edi. (S.Ahm)
	8	1.Ular Mavlono Muhiddinning bog‘ida jar bo‘yidagi kekxa yong‘oq tagida uchrashdilar. (O.Y) 2.Xona eshigi oldida o‘nlarcha odam navbat kutib turibdi. (M.S) 3.Uchinchi qo‘shni roziya opa bolalar yaslida murabbiya bo‘lib ishlardi. (M.Muhamedov) 4.Ulardan biri begimning kotibasi, ikkinchisi esa suhbatdoshi ekan. (M. Rasvo) 5.Xona eshigi oldida turgan kishilar kim? (N.S)
	9	1. Zargarov Qutbiddinovni o‘larday kalaka qilib rosa alamini oldi. (A.I) 2. Zaynabning ham toza, dog‘ ko‘rmagan ma`sum qalbida sevgi yaproq yozib qolibdi. 3. Sizning ishingiz bo‘lmasin! Bu yerda men boshliqman, siz emas. (L.SH) 4. Ot kimniki, minganniki. (Maqol) 5. Qiz qalbidek pok edi havo.(H.O)
	10	1. Kamondek qoshlaring, kipriklaringdan o‘q otar doim. (H.O.) 2. Aytdimki, qizingiz kaminaning bo‘y- bastiga shaydo bo‘lib qoldi. (O.Y.) 3. – Bu uzoqmi? – Yo‘q. Xuddi amerikaliklar zonasidagi

		bizning uycha keladi. (D. Kyusak) 4. Kiyikchamga katta uycha yasadim. (Sh.S.) 5. U kombinatga elektrik bo‘lib ishga kirgan edi. (A.Muxtor) 1. Qishloqdagi sayil bu yerdagidan ko‘ngilliroq o‘tdi. (A.Q) 2.Lekin bu ish avvalgi ishlaridan har jihatdan mushkulroq edi (H.G‘) 3.Sersoqol,baroq qoshli choliqushlar tiliga tushunardi. (Yu.S) 4.Otalar o‘z bolalarini dunyodagi bolalarning eng zo‘ri deb bilishadi. (S.Ahm) 5.Darhaqiqat, Tursunboy nihoyatda ko‘rkam yigit bo‘lgan edi. (S.Ahm)
13. Berilgan so‘zlarni o‘z va kochma ma’nolarini izohlang va ularni qatnashtirib gaplar tuzing.	1. 2. 3. 4. 5. 6. 7. 8. 9. 10	1. Yoqa, oltin, etak, signal, cho‘qqi 2. Suv, osh, qiziqmoq, gullamoq, kitob 3. Bosh, qalin, issiq, chopmoq, paxta 4. Kalit, esmoq, sahifa, er, ko‘z 5. Quloq, qanot, boshlamoq, kumush, shabada 6. Bel, zargar, sovuq, tosh, yurak 7. Burun, tumshuq, hasrat, chaqmoq, oy 8. Og‘iz, dum, tomir, arava, kavush 9. Qosh, yoqa, burchak, eslamoq, daftar 10.Tirnoq, qirg‘oq, temir, kulmoq, ruchka
37. Berilgan fe‘llardan uning nisbatlarini hosil qiling va ularni qatnashtirib gaplar tuzing.	1. 2. 3. 4. 5. 6. 7. 8.	Atamoq, gapirmoq bitmoq, kelmoq, boshlamoq, kelmoq, bog‘lamoq, gullamoq, dimlamoq, qoplamoq, g‘ovlamoq. Qizdirmoq, yumalamoq, yonmoq, yangilamoq, to‘ldirmoq, eshitmoq, qo‘ndirmoq, qamashmoq, qavimoq, yurmoq, Mavjlanmoq, qamashmoq, bastalamoq, bilmoq, bitmoq, boshlamoq, bog‘lamoq, bo‘ysunmoq, gapirmoq, gullamoq, Dimlamoq, yemoq, yelpimoq, yozmoq, yoymoq, juftlamoq, jo‘valamoq, zerikmoq, yig‘moq, kertmoq, Kuylamoq, laqillamoq, mustahkamlamoq, nikellamoq, ovlamoq, osmoq, savamoq, sanamoq, sepmoq, so b‘zlamoq Tabriklamoq, taramoq, to‘xtamoq, tilamoq, tolmoq, to‘plamoq, ulgurmoq, uchramoq, aldamoq, farqlamoq Xotirlamoq, chayqalmoq, chertmoq, boyimoq, bo‘shamoq, shoshmoq, egmoq, elamoq, yugurmoq, yurmoq. Yutmoq, o‘ylamoq, qavimoq, qayg‘urmoq, bormoq, qoplamoq, lovlamoq, hisoblamoq, yasamoq, o‘tmoq

	9.	Yutmoq, ko‘rmoq, kiymoq, o‘tmoq, qirmoq, qurmoq, yechmoq, so‘ramoq, qonmoq, intilmoq
	10.	Cho‘qmoq, salmoq, yopmoq, qalmoq, o‘qimoq, yuvmoq, yaltiramoq, ochmoq, sanamoq

2-semestr

Mavzu va topshiriqlar	Variant nomeri	Mavzular yuzasidan beriladigan topshiriqlar
4. Berilgan gaplarni so‘z birikmalariga ajratish va tahlil qilish	1.	Allakimlarning tovushlari qulog‘imizga elas-elas kirdi.
	2.	Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko‘chaga otildi.
	3.	Bir xotin sabzavotlar solingan katta xaltasini ko‘tarib kelayotgandi.
	4.	Dadam kechasi bilan uxlamay suruvni to‘yg‘azish uchun haydab boqardilar.
	5.	Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig‘lab yubordi.
	6.	
	7.	Bog‘bon ko‘m-ko‘k ajriq ustida o‘tirib hordiq chiqardi
	8.	Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi.
	9.	A‘zam tizzasidagi mahsini hafsala bilan pishiq tikadi.
	10.	Abdulla boshqalar bir sahifada aytadigan gapini bitta gapda aytadi-qo‘yadi.
		O‘zim ham chin o‘rtoqlikning ma‘nosini endi anglayapman.
16. Berilgan gaplarni tasnif qilish va sintaktik tahlil etish.	1.	1. Maktabimizda o‘quv- o‘qituv hamda tarbiyaviy ishlarning sifati yaxshilanayotir. 2. Biz ozod va obod Vatanda yashamoqdamiz. 3. Adabiyotshunosligimiz rivojlanmoqda.
	2.	1. Sermazmun asarlar ko‘paysin. 2. Yozuvchilarning adabiy faoliyati o‘smoqda. 3. Tinchliksevar xalqlar xalqaro ahvolning yaxshilanishini istaydilar

1. Murodali qazib qo'ygan chuqurlarga ko'chat o'tkazardi.
 2. O'qituvchilar bergan vazifani bajarmoqdamiz.
 3. Hamkorligimizni mustahkamlaymiz.
-
1. Salimjon g'ayratli va beozor yigitlardan
 2. Yangi o'tqazilgan nihollar serbarg bo'lib o'sayotir.
 3. Shaxarchadagi bolalar bog'chasi tuzikkina jihozlangan.
-
1. Beg'amlikni tugatamiz.
 2. Bo'stonliqda kishini hayratda qoldiradigan tabiat go'zalliklari, ajoyib manzaralar ko'p.
 3. Qoramtir osmon yorishib, tiniq ko'kda oq bulut parchalari ko'rindi.
-
1. Oygiz kekxa bog'bonni yelkasidan ushlab, mehribonlik bilan joyiga o'tqazdi.
 2. Xalq farovonligini oshirish, noz – ne'matlar bilan ta'minlashda bog'dorchilik katta o'rin tutadi.
 3. Zumradko'lining naq qoshida qumloq cho'l ko'rdim.
-
1. Suhbatdoshlar batafsil gaplashdilar.
 2. Paxtachilikni izchil rivojlantirish-asosiy burchimiz.
 3. Qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarimizni mustahkamlaymiz.
-
1. Kuzgi-qishki ishlar boshlandi.
 2. Samolyot noilojlikdan yerga qo'ndi.
 3. Sermazmun ma'ruzalar o'qildi.
-
1. Kutubxonamizga yangi kitoblar olib kelindi.
 2. Olima bilan Botirning qo'llari sevgi sadoqatining kuchi va samimiyligi bilan mahkam birlashdi.
 3. Paxta xalqimizning boyligidir.

- 10.**
1. Quyosh tik kelgan, havo lovullab yonadi.
 2. Baxtli yoshligimiz uchun davlatimizga minnatdorchilik bildiramiz.
 3. O‘qituvchi bergan vazifani bajarmoqdamiz.